MINTAQAVIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH MEXANIZMLARI

Xujayeva Nigora Yo‘ldashevna
Osiyo xalqaro universiteti MM101-IQ-25 guruhi magistratura talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18288885

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mintaqaviy investitsiyalarni jalb qilish xususiyatlari, o‘ziga xos ustuvorliklari va mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, mintaqaviy investitsiyalarni samarali jalb qilish mexanizmlarini tadqiq qilish yuzasidan xulosalar bayon etilgan.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются особенности, конкретные приоритеты и механизмы привлечения региональных инвестиций. Также представлены выводы по результатам исследования механизмов эффективного привлечения региональных инвестиций.*

Abstract. *This article discusses the features, specific priorities and mechanisms of attracting regional investments. It also presents conclusions on the study of mechanisms for effective attraction of regional investments.*

Kalit so‘zlar. *Investitsiya, mintaqaviy investitsiya, mexanizm, infratuzilma, tadqiqot.*

Ключевые слова. *Инвестиции, региональные инвестиции, механизм, инфраструктура, исследования.*

Key words. *Investment, regional investment, mechanism, infrastructure, research.*

Kirish. Hozirgi globallashuv sharoitida investitsiyalar milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy manbalaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Bu holatda mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda investitsiyalar jalb qilinadi. Chunki, investitsiyalar yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, infratuzilmani rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini tashkil etish hamda aholi farovonligini oshirish uchun zarurdir. Shu sababli, mintaqalarda investitsion muhitni yaxshilash va investorlar uchun qulay sharoitlar yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, so‘nggi yillarda mintaqaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha ijobiy natijalarga erishilmoqda. Sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, xizmatlar sohasi hamda logistika yo‘nalishlarida qator investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Xususan, kichik sanoat zonalari va erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilishi investorlar uchun soliq va bojxona imtiyozlarini taqdim etib, ularning faolligini oshirmoqda. Xususan, mintaqaviy darajada investitsiyalarni jalb qilish mamlakat iqtisodiy o‘sishini ta’minlash, hududlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada mintaqaviy investitsiya siyosati hududlarning tabiiy, mehnat, moliyaviy va infratuzilma salohiyatidan samarali foydalanishga qaratilgan bo‘lib, investitsiyalarni jalb qilishning aniq mexanizmlarini ishlab chiqishni talab etadi. Shunday ekan, mintaqaviy investitsiyalarni jalb qilish hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Investitsiyalar orqali ishlab chiqarish quvvatlari kengayib, yangi ish o‘rinlari yaratilishi, infratuzilmaning rivojlanishi va aholi turmush darajasining yuksalishi zarur bo‘ladi. Buning uchun har bir mintaqaning o‘z investitsiya jozibadorligini oshirishi zarurdir. Shu sababli,

mamlakat miqyosida mintaqaviy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini chuqur o‘rganish dolzarb masala bo‘lib hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi. Mintaqaviy investitsiyalarni jalb qilish yuzasidan turli tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, olib borilgan tadqiqotlarga asosan, investitsiya siyosati mamlakat iqtisodiy rivojlanish strategiyasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib hisoblanadi [1]. Yana bir tadqiqotlarga ko‘ra, mamlakatimiz hududlarining barqaror va mutanosib iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash O‘zbekistonda yuritilayotgan iqtisodiy siyosatning eng asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi [2]. Boshqa tadqiqotlarga asosan, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi samarali investitsiya siyosatiga bog‘liq bo‘ladi. Shu bois, mintaqaviy iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish investitsiya siyosati orqali mumkin [3]. Ushbu holatda ularning rivojlanishidagi nomutanosiblikni bartaraf etish va investitsiyalarni mintaqalar bo‘yicha tarkibiy jihatdan taqsimlash orqali mavjud mintaqaviy muammolarni hal qilishga qaratiladi. Yana bir tadqiqotlarda keltirilishicha, mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirish, zamonaviy uskunalar va texnologiyalar bilan jihozlangan yangi korxonalarni tashkil etish va rekonstruksiya qilish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish zarur hisoblanadi [4]. Boshqa xil tadqiqotlarda investitsiyalarni jalb qilish ularni amalga oshirish mexanizmlariga bog‘liq bo‘lishi lozimligi ta’kidlanadi. Ya’ni, investitsiya mexanizmi hududiy iqtisodiyotlarning ishlab chiqarish fondlarini samarali qayta ishlab chiqarishga qaratilgan davlat va xususiy investitsiya resurslarini investitsiyalash va boshqarishni ifodalaydi [5]. Boshqa tadqiqotlarda esa investitsiyalar imkoniyatlaridan foydalanish bevosita ularni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirishga asoslanadi. Ya’ni, tadqiqotlarda hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi [6].

Tahlil va natijalar. Mintaqaviy investitsiyalar muayyan hudud (viloyat, tuman va shahar) iqtisodiyotiga ichki yoki tashqi manbalar hisobidan kiritiladigan kapital qo‘yilmalaridan tarkib topadi. Ular ishlab chiqarishni rivojlantirish, infratuzilmani yaxshilash, ijtimoiy sohani qo‘llab-quvvatlash va xizmatlar sektorini kengaytirishga yo‘naltiriladi. Bu borada mintaqaviy investitsiyalar davlat, xususiy, xorijiy va qo‘shma investitsiyalar kabi turlarga ajratiladi. Bu borada mintaqaviy investitsiyalarni jalb qilish hudud iqtisodiy salohiyatining oshishi, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi, aholi daromadlarining o‘sishi, mahalliy budjet daromadlarining ko‘payishi va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish kabi ijobiy natijalarni ta’minlaydi.

Mintaqaviy investitsiyalarni jalb qilish hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashda muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Investitsiya siyosatida ustuvor yo‘nalishlarni to‘g‘ri belgilash resurslardan samarali foydalanish, raqobatbardosh iqtisodiyot shakllantirish va hududlar o‘rtasidagi tafovutlarni kamaytirishga xizmat qiladi hamda quyidagi turli ustuvor yo‘nalishlarga ega bo‘ladi:

Birinchi ustuvor yo‘nalish - ishlab chiqarish va sanoatni rivojlantirishga qaratilgan investitsiyalarni jalb qilishdir. Unga asosan, mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash, qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirish hudud iqtisodiyotining asosiy drayveri bo‘lib xizmat qiladi.

Ikkinchi ustuvor yo‘nalish - infratuzilmani rivojlantirishdir. Unga ko‘ra, transport-logistika tarmoqlari, energetika, suv ta’minoti va raqamli infratuzilmaning rivojlanishi investitsiya muhitini yaxshilab, xususiy va xorijiy investorlar uchun qulay sharoit yaratadi.

Uchinchi ustuvor yo‘nalish - inson kapitaliga yo‘naltirilgan investitsiyalarni kengaytirishdir. Bu bilan ta’lim, sog‘liqni saqlash va kasbiy tayyorgarlik tizimiga kiritiladigan investitsiyalar malakali mehnat resurslarini shakllantirib, uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi.

To‘rtinchi ustuvor yo‘nalish - kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashdir. Ushbu soha hududlarda bandlikni oshirish, daromadlarni ko‘paytirish va investitsiya faolligini kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Beshinchi ustuvor yo‘nalish - innovatsion loyihalar, yashil iqtisodiyot va ekologik barqaror rivojlanishga qaratilgan investitsiyalarni jalb qilish ham dolzarb ustuvorliklardan biri bo‘lib hisoblanadi. Mazkur investitsiyalar zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va atrof-muhitni muhofaza qilishga xizmat qiladi.

Shuni aytish lozimki, mintaqaviy investitsiyalarni jalb qilishning asosini, avvalo, hududning tabiiy-resurs salohiyati tashkil etadi. Yer, suv, qazilma boyliklar hamda qishloq xo‘jaligi imkoniyatlari mavjud bo‘lgan hududlar investorlar uchun jozibaliroq bo‘lib hisoblanadi. Ular tarkibidagi transport, energetika va kommunikatsiya infratuzilmasining rivojlanganligi esa investitsiya qarorlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Inson kapitali ham mintaqaviy investitsiyalarni jalb qilishning muhim asoslaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Malakali mehnat resurslari, ta’lim va kasbiy tayyorgarlik tizimining mavjudligi ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va investorlar xavfini kamaytiradi. Bundan tashqari, mahalliy bozor hajmi va aholining to‘lov qobiliyati ham investitsiya jozibadorligini belgilaydi. Hamda mintaqaviy investitsiyalarni jalb qilishda huquqiy va institutsional asoslar alohida o‘rin tutadi. Investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik, soliq va bojxona imtiyozlari, davlat kafolatlari investorlar uchun qulay muhit yaratadi. Bu borada mahalliy boshqaruv organlarining ochiqligi va samarali faoliyati investitsiya ishonchini mustahkamlaydi.

Mintaqaviy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlari tarkibiga mintaqaviy investitsiyalarni jalb qilish omillari ham kiradi hamda ushbu omillar quyidagicha tasniflanadi:

- tabiiy va resurs salohiyati. Bu bo‘yicha mintaqaning tabiiy boyliklari, yer resurslari, qishloq xo‘jaligi va xomashyo bazasi investorlar uchun muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Masalan, qazilma boyliklarga boy hududlarda sanoat investitsiyalari yuqori bo‘ladi.

- infratuzilma rivojlanganligi. Bu borada transport, logistika, energetika, aloqa va muhandislik infratuzilmasining rivojlanganligi investitsiyalarni jalb qilishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Rivojlangan infratuzilma ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi.

- mehnat resurslari va inson kapitali. Unga asosan, malakali kadrlar mavjudligi, ta’lim muassasalari va kasbiy tayyorgarlik darajasi investitsiya jozibadorligini oshiradi. Investorlar arzon va malakali ishchi kuchiga ega hududlarni afzal ko‘radilar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mintaqaviy investitsiyalarni jalb qilish quyidagi mexanizmlarga ajratiladi:

1) Huquqiy mexanizmlar. Ushbu mexanizmlar investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar, qarorlar va me’yoriy hujjatlar investorlar uchun huquqiy kafolat yaratadi. Soliq imtiyozlari, bojxona yengilliklari va huquqiy himoya investitsiya muhitini yaxshilaydi.

2) Moliyaviy mexanizmlar. Ushbu mexanizmlar mintaqaviy investitsiyalarni jalb qilishda qo‘llanilib, ular tarkibiga soliq va bojxona imtiyozlari va grantlar subsidiyasi, davlat kafolatlari hamda imtiyozli kreditlar kabi moliyaviy mexanizmlar qo‘llaniladi.

3) Institutsional mexanizmlar. Ushbu mexanizmlar investitsiya agentliklari, hududiy rivojlanish markazlari, “yagona darcha” tizimi investorlarga qulay shart-sharoit yaratadi. Bu mexanizmlar orqali hujjatlarni rasmiylashtirish soddalashadi.

Shuningdek, mintaqaviy investitsiyalarni jalb qilishda maxsus iqtisodiy zonalar investitsiyalarni jalb qilishning samarali vositasi hisoblanadi. Ularda soliq imtiyozlari, yer

uchastkalari bilan ta’minlash va tayyor infratuzilma mavjud bo‘ladi. Tizimi klasteri esa sanoat va qishloq xo‘jaligi klasterlari ishlab chiqarish zanjirini shakllantirib, investitsiyalarni samarali o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

Fikrimizcha, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun quyidagi yo‘nalishlardagi mexanizmlar qo‘llaniladi:

- investitsiya jozibadorligini oshirish. Unga asosan, xorijiy investorlar uchun barqaror siyosiy muhit, iqtisodiy kafolatlar va shaffof boshqaruv zarur bo‘lib hisoblanadi. Xalqaro reytinglarda ishtirok etish investitsiya imijini yaxshilaydi.

- xalqaro hamkorlikni amalga oshirish. Xalqaro moliya institutlari, rivojlanish banklari va donor tashkilotlar bilan hamkorlik qilish mintaqaviy investitsiyalarni ko‘paytirishga imkon beradi.

Shularga asosan, mintaqaviy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish uchun hududiy investitsiya strategiyalarini ishlab chiqish, infratuzilmani rivojlantirish, mahalliy boshqaruv organlari vakolatlarini kengaytirish va raqamli investitsiya platformalarini joriy etish lozim.

Xulosa. Mintaqaviy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlari hudud iqtisodiy rivojlanishining asosiy omili bo‘lib hisoblanadi. Unga asosan, huquqiy, moliyaviy va institutsional mexanizmlarni uyg‘unlashtirish orqali investitsiya muhitini yaxshilash mumkin. Bu borada samarali mintaqaviy investitsiya siyosati mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlaydi. Bu holatda mintaqaviy investitsiyalarni jalb qilish asoslari tabiiy resurslar, infratuzilma, inson kapitali va huquqiy-tashkiliy omillar uyg‘unligiga tayanadi. Ularni mustahkamlash orqali hududlar investitsiya salohiyatini oshirish va barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkin. Bu holatda mintaqaviy investitsiyalarni jalb qilish hududlarning iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional salohiyati bilan belgilanadi. Har bir mintaqa mavjud resurslardan foydalangan holda investitsiya muhitini yaxshilash orqali investorlarni jalb qilishi mumkin. Shunday ekan, mintaqaviy investitsiyalarni jalb qilish sanoat, infratuzilma, inson kapitali, tadbirkorlik va innovatsion rivojlanish yo‘nalishlarni qamrab oladi. Ushbu ustuvorliklar hududlar raqobatbardoshligini oshirib, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi. Shu bilan investitsiyalarni jalb qilish ijobiy tendensiyaga ega bo‘lib, bu borada mavjud salohiyatdan foydalanish orqali yuqori natijalarga erishish mumkin. Ya’ni, investitsion muhitni yaxshilash, investorlar bilan ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish va infratuzilmani rivojlantirish mintaqaning barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Жумаева С.К., Жумаева Ш.С. Минтақалар иқтисодиётига инвестицияларни жалб қилиш ва улардан самарали фойдаланиш бўйича хорижий мамлакатлар тажрибаси. // Иқтисод ва молия / Экономика и финансы, 2013, 8. - 16 b.
2. Яхшимуратова А.Р. Ўзбекистон худудларига инвестицияларни жалб қилишнинг ўзига хос хусусиятлари. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy-elektron jurnali, №5, sentyabr-oktyabr, 5/2021 (№ 00055). - 114 b.
3. Махиев З.З. Содержание региональной системы привлечения инвестиций. // Вопросы студенческой науки, Выпуск №5 (33), май 2019. - с. 436.
4. Jakhongir R. Khoshimov. (2024). Modern issues of attracting foreign direct investments to the regions. The American Journal of Applied Sciences, 6(01), 21-27.
5. Галачиева С.В., Махошева С.А. Формирование эффективного инвестиционного механизма в регионе. // Известия Кабардино-Балкарского научного центра РАН, № 6 (92), 2019. - с. 107.

6. Shermatov T.T. Ways of improving mechanisms for attracting foreign investment in the regions of Uzbekistan. // Экономика и финансы, 2023. - с. 109.